XALQ DEPUTATLARI KOGON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-5-017-2-208-K/24 Kogon shahar

Kogon shahrining 2025 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2024 yil 24 dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Buxoro viloyat Kengashining 2024 yil 26 dekabrdagi VII-4-026-2-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Buxoro viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 27-dekabrdagi 01/06/20-12-38/2227-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Kogon shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Buxoro viloyat Kengashining 2024 yil 26 dekabrdagi VII-4-026-2-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Kogon shahar mahalliy budjetining 2025 yilgi daromadlari **80360,9 mln.so‘m** hamda mutanosib ravishda xarajatlari **80360,9 mln.so‘mga** tasdiqlanganligi, shuningdek Kogon shahar mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori **769,0 mln.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Kogon shahar budjeti daromadlarining 2025 yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilovaga muvofiq** hamda shahar mahalliy budjetidan 2025 yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2-ilovaga muvofiq**, shuningdek Kogon shahar mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari **3-ilovaga muvofiq** tasdiqlansin.

4. Kogon shahar mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025 yil uchun **978,4 mln.so‘m** miqdorida belgilansin..

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Kogon shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Rajabov, shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi (N.Eshmurodov), shahar soliq inspeksiyasi (K.Axmadova) bilan birgalikda 2025 yil mahalliy budjet uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror tegishli “Kogon hayoti” gazetasida yoritilishi tavsiya etilsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Kogon shahar Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi J.Do‘stov hamda shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Rajabov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiyada raislik qiluvchi YANGIYEV ALIMJON XOSHIMOVICH

Xalq deputatlari Kogon shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-017-2-208-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Kogon shahar budjeti daromadlarining 2025 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Kontingent rejasi	Mahalliy reja
1	Aylanmadan olinadigan soliq	9 875 000,0	9 875 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	6 800 000,0	27 430 660,0
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 006 000,0	1 006 000,0
4	Aksiz solig‘i jami		10 753 500,0
-	*Shundan:*		
-	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*		*10 753 500,0*
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	766 000,0	5 856 000,0
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	6 185 000,0	6 185 000,0
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	1 189 000,0	9 310 000,0
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	3 440 773,0	3 440 773,0
9	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq		5 990 000,0
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	124 000,0	433 000,0
11	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	81 000,0	81 000,0
JAMI		**29 466 773,0**	**80 360 933,0**

Xalq deputatlari Kogon shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-017-2-208-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025 yil uchun Kogon shahar mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**80 360 933**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	14 393 726
	shundan:	
-	*"Mening maktabim"*	*662 057*
2	Madaniyat bo‘limi	4 384 942
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	2 789 000
4	Sport bo‘limi	5 772 632
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 498 000
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	893 000
7	Iqtisodiyot va moliya bo‘limini saqlash xarajatlari	1 962 000
8	Hokimyat	28 265 035
	shundan:	
-	*Ijtimoiy ko‘nikma markazlari*	*119 000*
-	*Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»*	*23 100*
-	*"Fuqarolar tashabbusi" jamg‘armasi*	*20 675 523*
-	*"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari*	*467 000*
-	*Zahira jamg‘armasi*	*978 412*
9	Hokimyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi)	768 571
	shundan:	
-	*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi saqlash xarajatlari*	*173 000*
-	*Axborot-kutubxona markazlari*	*595 571*
10	Hokimyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	19 634 027

Xalq deputatlari Kogon shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-017-2-208-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025 yilda Kogon shahar mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari

№	Mahalliy budjet nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Foyda solig‘i				alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				pivo				benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1.	**Kogon shahar**	0%	62%	100%	38%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	75%	100%	25%	0%	100%	100%	0%

№	Mahalliy budjet nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar				Aylan madan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy miqdorda belgilangan soliq	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	Davlat boji	Jarimalar	Yig‘imlar
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar								
1	**Kogon shahar**	0%	100 %	100 %	0%	100 %	100 %	0%	0%	100 %	100 %	0%	0%	0%	100 %	100 %	0%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%